




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



(2019 yil 1 iyun holatiga)

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



2019 yilning yanvar-may oylarida viloyatda 3207 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1663 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3133 taga, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni esa, 3436 taga o'sdi.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyun holatiga)

**24900 tani  
tashkil etdi**

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati



2019 yilning 1 iyun holatiga 24900 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,4 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,4 % savdo, 21,0% sanoat, 7,1 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa hamda 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (6565 ta) savdo, (5219 ta) sanoat, (1771 ta) qurilish, (1710 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1073 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (916 ta) tashish va saqlash, (534 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (351 ta) axborot va aloqa hamda (6761 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'pi Namangan shahri (9256 ta) hamda Chust (2052 ta) va Namangan (1707 ta) tumanlariga, eng kam esa, Mingbuloq (1008 ta), Norin (1064 ta) va Yangiqo'rg'on (1224 ta) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 24170 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3436 ta (16,6 %) ga o'sgan.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Namangan shahri (8859 ta), Chust (1980 ta), Namangan (1680 ta), Uychi (1544 ta), Kosonsoy (1475 ta) va To'raqo'rg'on (1472 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1007 ta), Norin (1051 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1164 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**2019 yil yanvar-may oylarida 3207 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1663 taga ko'pdir.**

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida

soni, birlikda


o'sish surati, %da



Yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1300 ta), sanoat (896 ta), qurilish (236 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (188 ta) sohalarida, eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (25 ta), axborot va aloqa (32 ta) hamda tashish va saqlash (104 ta) faoliyat turlarida tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Savdo

1300



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

168



Sanoat

896




Tashish va saqlash

104



Qurilish

236



Axborot va aloqa

32



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

188



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

25

Boshqa turlar




258



# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (896 ta) hamda Chust (278 ta), Pop (272 ta) va Uychi (244 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (153 ta), Mingbuloq (155 ta) va Chortoq (167 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyun holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonasi va tashkilotlar soni 19916 tani tashkil etdi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonasi




Oilaviy korxonasi




Unitar korxonasi




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



173 ta



O'tgan yilning shu davriga nisbatan 57,3 % o'sgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**


**Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

2019 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 173 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga yoki 57,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 118 tasi qo'shma, 55 tasi esa, xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahrida 60 ta (jamidagi ulushi 34,7 %), Kosonsoy tumanida 17 ta (9,8 %) Uychi tumanida 16 ta (9,2%) hamda To'raqo'rg'on tumanida 14 tani (8,1 %) tashkil etgan.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mingbuloq tumanida 2 ta (1,2 %), Uchqo'rg'on tumanida 5 ta (2,9 %), Namangan tumanlarida 6 ta (3,5 %) tashkil etgan.


# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash, qurilish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

1





2019 yilning yanvar - may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 38 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga ko'paygan.



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 6 ta, Rossiya Federatsiyasi va Koreya Respublikasi - 5 tadan, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikasi - 4 tadan, Hindiston - 3 ta, Qozog'iston va Chexiya Respublikasi - 2 tadan, Eron, Keniya, Singapur, Kanada, Afg'oniston, Turkiya va Misr davlatlari - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 13 ta sanoat, 8 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 5 ta savdo faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyun holatiga)



*2019 yil 1 iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 19807 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 20,2 % ga oshgan.*

*2019 yil yanvar-may oylarida 3103 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1868 taga ko'proqdir.*




**•Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi**

**•Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi**



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19807 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6226 ta (31,4 %) - savdo, 5113 ta (25,8 %) - sanoat, 1679 ta (8,5 %) - qurilish, 1637 ta (8,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1028 ta (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 890 ta (4,5 %) - tashish va saqlash, 428 ta (2,2%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 318 ta (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2488 tasi (12,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Savdo

41,9 %



Sanoat

28,8 %



Qurilish

7,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,4 %



Tashish va saqlash

3,4 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

6,0 %



Axborot va aloqa

1,0 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

0,8 %




Boshqa turlar

5,1 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1300 ta (41,9 %), sanoat 895 ta (28,8 %), qurilish 236 ta (7,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 186 ta (6,0 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 168 ta (5,4 %) tashkil etilgan. Eng kam sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 25 ta (0,8%), axborot va aloqa 32 ta (1,0 %) hamda tashish va saqlashda 104 ta (3,4 %) tashkil etilgan.


# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (864 ta), Chust (271 ta), Pop (263 ta) va Uchqo'rg'on (238 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiqo'rg'on, Mingbuloq (149 tadan) hamda Chortoq (152 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1 iyun holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019 yil 1 iyun holatiga



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 49,9 %i yoki 212 tasi sanoat, 15,8 %i yoki 67 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlar, 14,6 %i yoki 62 tasi savdo, 9,2 %i yoki 39 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 5 tadan axborot va aloqa hamda sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish sohalari, 0,5 %i yoki 2 tasi qurilish, 0,2 %i yoki 1 tasi tashish va saqlash, 7,4 %i yoki 32 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Namangan viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi.**

**Tel.:71-230-84-95(96)**